


МАКТАБГАЧА ТА`ЛИМДА 6 ЙОШЛИ БОЛАЛАРНИНГ

ТАШАББУСКОРЛИГИНИ РИВОЈЛАНТИРИШ



Andijon davlat pedagogika instituti

Maktabgacha ta'lim va maxsus pedagogika fakulteti

Maktabgacha ta'lim yo'nalishi

201-gurux talabasi

Usmonova Xabibaxon.

Ilmiy raxbar: **Kadirova Omadxon.**

Annotatsiya: Ushbu maqolada 6 yoshli bolalarning tashabbuskorligini rivojlantirishning pedagogik asoslari, maktabgacha ta'lim muassasalaridagi imkoniyatlar va samarali metodlar tahlil qilinadi. Bolalarda tashabbuskorlikni shakllantirish orqali ularning ijodkorligi, mustaqil fikrashi va ijtimoiy faolligi yuksaladi.

Kalit so'zlar: tashabbuskorlik, 6 yoshli bolalar, maktabgacha ta'lim, ijodkorlik, faoliyatga yo'naltirish, o'yin, mustaqillik.

Zamonaviy ta'lim tizimining asosiy vazifalaridan biri – shaxsning mustaqil fikrlaydigan, ijodkor, tashabbuskor va ijtimoiy faol bo'lib shakllanishiga ko'maklashishdir. Ayniqsa, maktabgacha ta'lim bosqichi bolaning psixologik va intellektual rivojlanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega. 6 yoshli bolalarda tashabbuskorlikning shakllanishi ularning keyingi ta'lim bosqichlariga tayyorligi, mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmasi va ijtimoiy moslashuvchanligining asosi hisoblanadi.

1. Tashabbuskorlik tushunchasi va uning ahamiyati

Tashabbuskorlik – bu bolaning yangi g'oyalarni ilgari surish, mustaqil qaror qabul qilish, faoliyatni o'z tashabbusi bilan boshlash qobiliyatidir. 6 yoshga kelib

bola:o‘z fikrini erkin ifoda eta oladi,muammoni mustaqil hal qilishga intiladi, o‘z faoliyatini rejalashtirishga harakat qiladi.

Bu yoshda berilgan mustaqillik va qo’llab-quvvatlovchi muhit bolalarda tashabbuskorlikni kuchaytiradi.

2. Maktabgacha ta’lim muassasalarida tashabbuskorlikni rivojlantirish usullari:

Erkin o‘yinlar: bolalar o‘zlari boshlagan o‘yinlar orqali tashabbus ko‘rsatadilar. Masalan, rolli o‘yinlarda rahbarlik qilish, yangi ssenariy tuzish.

Savol-javob va munozaralar: bolalarning fikrini tinglash va o‘z fikrini bildirishga rag‘batlantirish.Ijodiy topshiriqlar: rasm chizish, konstruktor bilan ishlash, ertak to‘qish orqali mustaqil fikr va g‘oyalarni ilgari surishga undash. Tajriba va kuzatishlar: o‘rgatuvchi tajribalar orqali bolalarni faol ishtirok etishga jalg qilish.Liderlik faoliyatları: kichik guruhlarda yetakchi bo‘lish imkoniyatini berish.

3. Pedagogning roli.Tarbiyachi bolalarga imkon yaratishi, ularning tashabbusini qadrlashi va har bir bola bilan individual ishlashi kerak. Ijobiy motivatsiya, erkin va samimiy muhit bolalarda tashabbuskorlikni qo’llab-quvvatlaydi.

Bugungi kunda mamlakatimizda maktabgacha ta’lim tizimida keng imkoniyatlarni yaratish zarurati va ahamiyati, shuningdek, maktab ta’limiga tayyorgarlik ko‘rish modellarining yo‘qligi. 6-7 yoshli bolalarni kompleks rivojlantirish va o‘qitish uchun "Ilm yo‘li" dasturini ishlab xalqaro tajribasini

hisobga olgan holda bolani har tomonlama va rivojlantirish, tarbiyalash va o‘qitish, maktabga samarali tayyorlashni ta’minlashga qaratilgan hujjatdir.Ushbu dastur kuniga uch soat davomida ta’lim tadbirlarini o‘tkazadi. Albatta, bu bejiz emas, chunki ushbu mashg‘ulot soatlarida bolaning tanasi, uning fiziologik va aqliy rivojlanishi hisobga olinadi. Xuddi shu 6-7 yoshli bolaning mushak-skelet tizimi va yurak-qon tomir tizimlarining jadal rivojlanishi, Markaziy asab tizimidagi ba’zi mushaklarning rivojlanishi va farqlanishi. Bolaning vazni oyiga 200 grammni tashkil qiladi va bo‘yi 0,5 sm ga oshadi, 7 yoshli bolalarning o‘rtacha bo‘yi 133-122 sm, o‘rtacha vazni 21-25 kg. Bu yoshda bolada aqliy jarayonlar ham rivojlanad6 yoshli bolalarni tashabbuskorlik ruhida tarbiyalash – ularning keyingi bosqichdagi

muvaffaqiyati uchun muhim tayanch hisoblanadi. Maktabgacha ta'lif muassasalarida o'yin, ijodkorlik va erkin fikrlash asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar bolalarda tashabbuskorlikni shakllantirishning samarali vositalaridir. Maktabgacha ta'lif tashkilotlarida 6-7 yoshli bolalarning ijtimoiy-hissiy rivojlanishiga tizimli yondashuv asosida kattalar va tengdoshlari bilan muloqatchanlikka o'rgatish hissi, psixologik zo'riqishlarga nisbatan bardoshli bo'lish ko'nikmalarini shakllantirishga ko'maklashishimiz lozim.

Bolalar jamoasini shakllantirish axloqiy tarbiya bilan chambarchas bog'liqdir. Bolalar o'z xulqlarining jamoa manfaati bilan bog'liqligi haqidagi bahoni eshitadilar. Bola jamoa fikri va bahsi bilan hisoblashsa, o'zining jamoa uchun zaruriyatini sezsa, u bilan g'ururlansa, umumiy hayotning yoqimli va quvonchli bo'lishi uchun intilsa, bu jamoaning yetarli darajada shakllanganligidan dalolat beradi.

Maktabgacha ta'lif tashkilotlarida 6-7 yoshli bolaning ijtimoiy-hisiy rivojlanishida shaxslararo munosabatlarni yetarlicha shakillanmaganligi sababli bu yoshdagи bolalar atrofidagi ko'p narsalarga noadekvat munosabatda bo'lishadi. Nega?- degan savolga bugungi kunda bolaning birinchi tarbiyachilari televizor va zamonaviy gadjetlar, ekanligini javob qilib ko'rsatishimiz mumkin. Bilamizki gadjetlar ko'pincha yangilik sifatida qabul qilinadi va katta

qiziqish bilan o'rganiladi. Bunday qurilmalar har bittasi o'zining orginal dizayni bilan ham e'tiborni tortadi. Oqibatida bola shaxsida boshqa odamlarning his-tuyg'ularini e'tiborsiz qoldirish, muloqotchanlikning yo'qligigi kabi holatlari uchrab turibdi. O'z his-tuyg'ularini boshqarishga harakat qilmaydigan bolalar aynan manashunday "Qaram" bolalar orasidan chiqishayotganini kuzatishimiz mumkin. Bu asosan, juda kam komunikkatsiya qilish bilan ham tasniflanadi.

Maktabgacha yoshdagи, xususan, 6 yoshli bolalarning tashabbuskorligini rivojlantirish – ularning ijtimoiy-psixologik yetukligi, mustaqil fikrlash qobiliyati va ijodiy salohiyatining shakllanishida muhim o'rinn tutadi. Bolalarda tashabbuskorlikni rag'batlantirish uchun maktabgacha ta'lif tashkilotida qulay psixologik muhit yaratish, erkin va ijodiy faoliyatlarga keng imkoniyat berish zarur. O'yinlar, ijodiy

mashg‘ulotlar, mustaqil tanlov va qaror qabul qilish imkoniyatlari orqali bolalar o‘z fikrini ifoda etishga, g‘oya ilgari surishga, faol qatnashishga o‘rganadilar. Tarbiyachi va ota-onalarning qo‘llab-quvvatlovchi yondashuvi esa bu jarayonning muvaffaqiyatli kechishini ta’minlaydi. Demak, maktabgacha ta’limda tashabbuskorlikni rivojlantirish bolalarning kelajakdagi shaxsiy va ijtimoiy muvaffaqiyati uchun poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROYXATI.

1. Z. T. Nishonova. M. Xolnazarova. “Rivojlanish psixologiyasi”. Toshkent. 2019.
2. Kulagina I, Yu. Agepsychology (Development of a child from birth to 17 years), 1999 Allhusen, V., Belsky, J., Booth, C. et al. (2003).
3. Early child care and mother-child interaction from 36 months through first grade. Infant behavior and Development, 26(3), 345–370.
4. Barbarin, O.A., Early, D., Clifford, R. et al. (2008). Parental conceptions of school readiness. Early Education and Development, 19(5), 671–701.
5. Belsky, J., Bakermans-Kranenburg, M. & Van IJzendoorn, M. (2007)